

FARG'ONA VILOYATI KUTUBXONALAR TARIXI (1917–1991-YILLAR)

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i03.004>

Mahmudova Madinabonu Hasanjon qizi

FarDU Tarix mutaxassisligi magistranti

mahmudovamadinabonu@gmail.com

+998772760120

Annotatsiya: Ushbu maqola 1917-1991 yillarda Farg'ona viloyatidagi dastlabki kutubxonalar faoliyatini arxiv hujjatlari, statistik to'plamlar, mahalliy, xorijiy manbalar, davriy matbuot materiallari asosida ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: ommaviy kutubxonalar, bibliografiya, shahar abonementi, harbiy okrug kutubxonalari, fond.

Abstract: This article aims to reveal the activities of the first libraries in the Fergana region in 1917-1991 based on archival documents, statistical collections, local and foreign sources, and periodical press materials.

Key words: public libraries, bibliography, city subscription, military district libraries, fund.

Kirish

O'zbekistonning madaniy-ma'naviy hayotida kutubxonalar muhim o'rin tutadi. Kutubxona — bu nafaqat kitob saqlanadigan joy, balki xalqning ma'naviy, madaniy, ilmiy va ma'rifiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy institutdir. XX asrning boshlarida Farg'ona viloyatida shakllangan kutubxonalar tizimi sovet davrida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu tezisda 1917–1991-yillar oralig'ida Farg'ona viloyati kutubxonalarining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism

1917–1941-yillar oralig'ida Farg'ona viloyatida kutubxonalar tarmog'i asta-sekin shakllana boshladi. Sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan aholining savodxonligini oshirish maqsadida xalq kutubxonalari tashkil etildi. Dastlabki yillarda bu kutubxonalar asosan shahar markazlarida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, keyinchalik qishloq hududlarida ham kichik o'quv maskanlari tashkil etildi. Mazkur davrda kutubxonalarda asosan siyosiy, mafkuraviy va o'quv xarakteridagi adabiyotlar mavjud bo'lib, ular sovet mafkurasini targ'ib etishga xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillari (1941–1945) kutubxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab madaniy muassasalar, jumladan kutubxonalar ham moliyaviy qiyinchiliklar va kadrlar tanqisligi bilan to'qnash keldi. Shunga qaramay, urush yillarida

kutubxonalar frontdagi askarlarga ma'naviy madad beruvchi markazlardan biri sifatida faoliyat yuritdi. Urushdan so'ng, 1946–1960-yillar oralig'ida Farg'ona viloyatida kutubxonachilik ishlari qayta tiklandi. Shu davrda viloyat markazida va tumanlarda yangi kutubxonalar ochildi, kitob fondlari boyitildi, aholi o'rtasida o'quv an'alarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

1960–1991-yillar Farg'ona viloyatida kutubxonachilik tizimi keng quloch yoygan davr bo'ldi. Madaniyat vazirligi, xalq ta'limi bo'limlari va jamoat tashkilotlari tashabbusi bilan yangi tumanlararo va markaziy kutubxonalar barpo etildi. 1970-yillardan boshlab kutubxonalar o'quvchilar, talaba-yoshlar va ishlab chiqarish korxonalarini xodimlari uchun asosiy ma'naviy-ma'rifiy markazlarga aylandi. 1973-yildan boshlab O'zbekiston nashriyotlari respublika kutubxonalari uchun, ommaviy kutubxonalar kitob fondi o'zagi uchun maxsus maqsaddagi kitoblarni chiqara boshladi. Faqat 1983-yilda shu xildagi adabiyotdan respublikada jami 2417 ta nomda kitob va broshyura nashr etilgan bo'lib, ulardan 967 tasi o'zbek tilida 24861,6 ming nusxada chop qilindi. 1980-yillarda kutubxonalar tarmog'ida avtomatlashtirilgan hisob tizimlari, bibliografik ma'lumotlar kartotekasi joriy etila boshlandi. Bu jarayon Farg'ona viloyati kutubxonalarining zamonaviylashuvi va xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga olib keldi. Shuningdek, 1970–1980-yillarda Farg'ona viloyatida aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'plab moviy ko'chma kutubxonalar faoliyat yurita boshladi. Ular qishloq joylarda kitob yetishmovchiligi muammosini hal etishga xizmat qilgan. Shu davrda kutubxonalarda o'tkazilgan kitobxonlar konferensiyalari, badiiy kechalar va madaniy tadbirlar aholining ma'naviy dunyoqarashini boyitishda muhim o'rin tutgan. 1917-1991 yillarda Turkistonda kutubxona ishi tarixi mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: 1. O'lka xalqlari ma'naviy xayotida kitob va kutubxonalarning o'rni va tarbiyaviy ahamiyati beqiyos bo'lib, aholi ijtimoiy-siyosiy hayotida nafaqat ma'lumot manbai, balki, g'oyaviy kommunikativ ahamiyati yuqori bo'lib keldi. Turkistonda 1870-yilda birinchi zamonaviy kutubxona-Toshkent ommaviy kutubxonasiga asos solinib, unda dastlab maxalliy qo'lyozmalar va rus, ingliz, fransuz, nemis va polyak tillaridagi bosma kitoblar ham saqlangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 1917–1991-yillar Farg'ona viloyati kutubxonalari uchun murakkab, lekin sarmazmun tarixiy bosqich bo'ldi. Ushbu davrda kutubxonalar tizimi faqat kitob tarqatish bilancheklanmay, balki aholining ma'naviy-ma'rifiy hayotini yuksaltirish, yoshlarni ilm-fan va madaniyatga jalb etishda muhim rol o'ynadi. Sovet davrining mafkuraviy bosimi sharoitida ham kutubxonachilar aholiga bilim manbalarini yetkazishda fidokorona mehnat qilishdi. Bugungi kunda ularning tajribasi Farg'ona viloyatida zamonaviy axborot-kutubxona tizimini shakllantirishda ahamiyatli tarixiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlari (1917–1991-yillar).
2. Farg‘ona viloyati kutubxonalari to‘g‘risidagi hisobotlar (O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondi).
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Madaniyat va san’at masalalari bo‘yicha hukumat qarorlari to‘plami. – T.: 1970–1990-yillar.
5. Jo‘rayev A. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. – T.: Fan, 1995

